

ABDURAHMON JOMIY IJODIDA MUAMMO JANRI

Jaloliddin Jo'rayev,

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori*

oygor@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Abdurahmon Jomiyning muammo janrining nazariy masalalariga bag'ishlab yozgan "Risolai muammo kabir", "Risolai muammoi mutavassit", "Risolai muammoi sag'ir", "Risolai muammoi manzum" risolalari, ularning yaratilish sabablari, tuzilishi, boshqa risolalardan farqli jihatlari xususida ma'lumot berilgan. Shuningdek, she'riyati tarkibidagi muammo janridagi she'rlarining xususiyati, tili, mavzu ko'lam to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Jomiy, muammo janri, muammo janriga bag'ishlangan risolalar, janr xususiyati, badiiyat.

Аннотация. В статье представлена информация о трактатах Абдурахмана Джамии по теоретическим вопросам проблемного жанра: «Рисолаи муаммои кабир», «Рисолаи муаммои мутавассит», «Рисолаи муаммои сагир», «Рисолаи муаммои манзум», а также причины их создания, структура и отличия от других трактатов. Рассматриваются также жанровые характеристики, язык и тематика его стихотворений в жанре муаммо.

Ключевые слова: Абдурахман Джамии, проблемный жанр, трактаты по проблемному жанру, жанровые особенности, художественность.

Annotation. This article presents information on Abdurrahman Jami's treatises on theoretical issues of the problematic genre: "Risolai Muammoi Kabir," "Risolai Muammoi Mutawassit," "Risolai Muammoi Saghir," and "Risolai Muammoi Manzum," as well as the reasons for their creation, structure, and differences from other treatises. The genre characteristics, language, and themes of his muammo poems are also examined.

Keywords: Abdurrahman Jami, problematic genre, treatises on problematic genre, genre features, artistry.

Kirish. Abdurahmon Jomiy (1414-1492) forsiy adabiyotning ko'plab janrlarida ijod qilib, o'sha janrlarning g'oyaviy-badiiy yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan adib sifatida alohida o'rin tutadi. Ulug' adib, jumladan, muammo janrida ham asarlar yozish bilan birga, mazkur janrga bag'ishlangan to'rtta risola ham tartib bergan [14].

Muammo janri to'g'risida ma'lumot beruvchi risolalarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga to'g'ridan-to'g'ri muammo janriga bag'ishlangan risolalar kirs, ikkinchi guruhga boshqa she'riy janr va san'atlar bilan bir qatorda muammo to'g'risida ham ma'lumot beruvchi manbalarni kiritish mumkin. Bular bilan birgalikda muammo janriga bag'ishlangan risolalar nasriy yo'lda va nazmda yozilganligi bilan bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, risolalarning ba'zilar ko'proq nazariy masalalarga bag'ishlansa, ikkinchi bir turida asosiy e'tibor muammoni amaliy jihatlari qaratilgan. O'z navbatida, ularning ayrimlarida muammo amallarining barchasi qamrab olingan bo'lsa, ba'zilarida bir nechta yoki ma'lum bir qoida xususida so'z yuritilgan.

Adabiyotlar tahlili. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Hulali mutarraz dar fanni muammo va lug'az" asari hozirga qadar yetib kelgan va maxsus muammo janriga bag'ishlangan birinchi yirik ko'lamdagi qo'llanmadir. Keyingi o'rinda uning "Muntaxabi hulal"i turadi.

Soʻngra Movarounnahr va Xurosonda Sayfiy Buxoriy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Hazrat Mir Haydar, Yusuf Badeʼiy, Husayn Nishopuriy, Sharifiy Munajjim, Qosim Koxiy Miyonkoliy, Shahobiddin Muammoiy, Niyoziy Buxoriy, Mavlono Jununiy kabi oʻnlab mualliflar tomonidan bitilgan bir va undan ortiq risolalar janrning nazariy asoslanishi va taraqqiyotiga maʼlum darajada taʼsir koʻrsatgan.

Mazkur risolalar mualliflarning maqsad, iqtidor, mahorat darajasi, yaratilgan davri nuqtai nazardan bir-biridan farq qiladi. Aytib oʻtilganidek, ularning birinchi turkumiga muammoning nazariy va amaliy jihatlarini ochishga eʼtibor qaratilganlarini kiritsak (Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Badaxshiy, Qosim Koxiy Miyonkoliy, Shahobiddin Muammoiy, Niyoziy Buxoriy va boshqalarning asarlari), ikkinchi bir turkumni faqat ayrim muammo amallari toʻgʻrisida tushuncha berishni maqsad qilgan risolalar tashkil qiladi (Masalan, Sharafiddin Munajjim Muammoiyning “Qavoidi muammo”sida faqat intiqod, tashif, istiora va tashbih, isqot va qalb amallari asosida tuziladigan muammolar haqida soʻz yuritilgan, xolos [25]). Mavlono Burhoniddin Azizning “Qavoidi Mashriqiy” faqat muammo amalida ishtirok etuvchi soʻzlar imo-ishora soʻzlar toʻgʻrisida maʼlumot berishga yoʻnaltirilgan [15]. Muallifi nomaʼlum bir risola qirqta qoida asosida muammoda ishtirok etadigan unsurlar koʻrsatilgan va misol berilgan [16]. Boshqa bir muallifi nomaʼlum risolada 18 ta qoida doirasida turli fanlarga doir muammo janriga aloqador ishoralar xususida soʻz borgan va misol koʻrsatilgan [18].

Ali Yazdiyning “Muntaxabi hulal”i “Hulali mutarraz dar fanni muammo va lugʻaz”dan keyin hozirgi kungacha yetib kelgan fors tilidagi muammo janriga oid risolalardan biridir. Asar boshida hamd va naʼtdan keyin “Hulali mutarraz dar fanni muammo va lugʻaz” nihoyalani, podshohning arzigaga yetkazilganligi aytiladi. Yana zikr qilinishicha, bir qancha vaqt oʻtib, majlisi oliyda mazkur asar haqida soʻz yuritilgan. Uning kattaligi, muammo janriga qiziquvchilarning manfaatini hisobga olgan holda saralab olingan boshqa bir kitob tartib berish buyurilgan. Yazdiy ana shu buyruq va talabga koʻra, ortiqcha tafsilotlardan xoli asar yaratishga kirishajagini bildirgan [24].

“Muntaxabi hulal”da “Hulali mutarraz dar fanni muammo va lugʻaz”dagidek muammo va lugʻaz oʻrtasidagi farqni koʻrsatishga koʻp oʻrin ajratilmagan. Shuningdek, birinchi asarda mavjud insonning aqli, xotirasi, fikrlash tezligi, bir narsani bilishda bilimining ahamiyati, dunyoning yaratilishi, Tangrining qudrati kabi falsafa va mantiq bilan bogʻliq katta qism tushirib qoldirilgan. Unda asosiy eʼtibor muammo janrining xususiyati va amallariga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Abdurahmon Jomiyning “Hulyai hulal” yoki “Risolai muammoi kabir” nomi asari Abulqosim Boburga bagʻishlab yozilgan [13: 217]. Muqaddimada muallif ushbu asarini yaratishda Ali Yazdiyning “Hulali mutarraz dar fanni muammo va lugʻaz” va “Muntaxabi hulal” risolalaridan foydalanganligi, mavzu qoida va maqsadlarga boʻlinishini aytadi [3]. Asar bitta afsar (toj), uchta aqd va xalxol (taqinchoq)dan iborat. Dastlab bitta afsar (toj) va yettita tarsiʼ (bezak) doirasida muammo

xususiyati, tahsiliy, takmiliy va tashiliy deb nomlangan guruhga kirgan amallarning o'ziga xosligi bayon qilingan. So'ngra ana shu amallar to'g'risida ma'rhumot berishga kirishilgan. Oldin har bir amalning mohiyati va ishtirok etadigan ishora so'zlar keltirilib, misollar ko'rsatib borilgan. Xalxolda esa, muammoning badiiyati bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Allomaning muammo janriga bag'ishlangan ikkinchi asari ko'pchilik tomonidan "Risolai muammoi mutavassit" deb atalib kelinadi. Asar Sulton Husaynga atab yozilgan. Muammo amallari to'rt guruhga bo'lingan. Har bir amal qisqacha ta'riflanib, ularga misollar berilgan va muxtasar shaklda yechimi tushuntirib borilgan. Risolaning eng muhim jihatidan biri, unda muammoning nasrdagi ko'rinishining ko'rsatib o'tilganidir [4].

Jomiyning muammo janriga bag'ishlangan keyingi "Risolai muammoi sag'ir" deb nomlangan. Unda oldingi risolalardan farqli tarzda muqaddima, sababi ta'rif kabilarga o'rin ajratilmay, to'g'ridan-to'g'ri muammo amallari bayoniga kirishilgan. Chunonchi, ushbu risolada ham amallar tahsiliy, takmiliy va tahsiliy guhurlariga ajratilib, har bir qoidaning mazmuni va ishora so'zlar xususida ma'lumot berilgan. O'z navbatida har bir amalga misollar ko'rsatilgan [5].

Jomiyning nasrda yozilgan risolalaridagidek "Risolayi muammoyi manzum"da qoidalar keng va batafsil tushuntirilmagan, nazariy fikrlar bildirilgan emas. Unda faqat har bir muammo qoidasining mohiyatigina ta'riflangan. Masalan, Jomiy nasrda yozilgan muammo risolalarida biror-bir muammo qoidasini ta'riflagandan keyin o'sha qoidaga ikki va undan ortiq misol keltiradi. Zarur hollarda qoidalarga bog'lab keltirilgan misollarning yechimini oydinlashtiradi. "Risolayi muammoyi manzum"da muallif muammo qoidalarini bir-ikki bayt doirasida bayon qilib, bir-ikkita misol ko'rsatish bilan cheklangan. Misol tariqasida keltirilgan muammoning yechimi, ta'rifi berilayotgan qoidaga qaysi jihatlari bilan bog'liqligi borasidagi tafsilotlarga e'tibor qaratilmagan. Risola muammo janri qoidalari yuzasidan muayyan bilimga ega o'quvchi uchun qoidalarni yana bir bor esga olishda qo'l kelishi mumkin [9].

Tahlillar va natijalar. Barcha mualliflar muammo qoidalarini osonidan qiyiniga qarab tasniflaganlar. Shu bois, risolalarning barchasida mazkur tasnifga qarab amallar yuzasidan tushunchalir berilib, misollar ko'rsatilgan. Bu jihat Ali Yazdiyning ikkala risolasiga ham xos. Abdurahmon Jomiyning muammo janriga bag'ishlangan birinchi risolasi ham ana shunday tuzilishga ega. Uning ommaboproq bo'lgan "Risolai muammoi mutavassit"i to'g'risida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin. Asar garchi o'z davri ehtiyojlarini qondira olgan bo'lsa-da, unda muammo amallarini bayon qilish uslubi ancha murakkab. Bu murakkablik keltirilgan misollar bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Barcha tasniflarda birinchi qoida sifatida intiqod amali keltirilgan. Jumladan, Jomiyning "Risolai muammoi mutavassit"ida ham shunday. Asarda mazkur qoidaga ko'rsatilgan "Xusrav" nomiga yozilgan muammoga e'tibor beraylik:

از درخت گل اگر برگی شود پیوند سرو

قد رعناى ترا گفتن مانند سرو [6:6b]

Mazmuni:

Gul shoxidan agar bitta barg sarvga payvand bo'lsa,
Sening ra'no qadingni sarvga o'xshaydi deyish mumkin.

Muammodagi ishoralarga ko'ra, ismni hosil qilish uchun daraxt va sarv so'zlari vosita bo'lib kelgan. Unga asosan, درخت ("daraxt") so'zidagi خ ("xe") harfi olinib, سرو ("sarv") ga ulanadi. Ko'rsatib o'tganimizdek, درخت ("daraxt") dagi خ ("xe") harfi bargga o'xshatilgan, bu esa, intiqod qoidasining ishora so'zlaridan ko'ra, tashbih qoidasi ishoralariga yaqin turadi. Garchi so'z intiqod qoidasi xususida borayotgan bo'lsa-da, misolda boshqa qoidaga ham aloqador ishorlarning ishtirok etayotganligi o'quvchining chalg'ishiga sabab bo'ladi.

Sharq adabiyoti tarixida faqat muammo janrida yozilgan she'rlaridan iborat "Devon"lar ham bunyodga kelgan. Ali Yazdiyning "Manozir" ini muammo janridagi she'rlardan iborat ilk devon sifatida ko'rsatish mumkin [22]. Odatda bunday "Devon"lar "Muammoyot" nomi bilan berilgan. Ushbu devonlarning ba'zilar an'anaviy devon tartib berish qoidasiga xos tarzda boshqa mavzudagi she'rlardan oldin hamd va na't mavzularidagi she'rlar o'rin olgan. Boshqalarida esa faqat hamd yoki na't mavzuidagi muammo she'rlar jamlangan [Alloh va Muhammad (s.a.v.)ga bag'ishlab bir shoir tomonidan hamd va na't she'rlar turkumi yozish an'anasini faqat muammo janrida yozilgan she'rlar misolida ko'rish mumkin.].

Bu kabi "Devon"larni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga faqat Alloh yoki Muhammad payg'ambarning 99 ismiga aytilgan muammolar kiradi. Ularning ba'zilar alifbo tartibida bo'lsa, boshqalarida bu qoidaga amal qilinmaydi. Misol tariqasida O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan muallifi noma'lum muammo she'rlar to'plamini ko'rsatish mumkin. Bu to'plamda Allohning 99 ismiga yozilgan muammolar alifbo tartibida beriladi [17; 18]. Bunday qoidaga amal qilingan hol Abbosqulixon Shomluning she'rlarida ham ko'zga tashlanadi. Abbosqulixon Shomlu "alif"dan to "yo" harfigacha Allohning turli ismlariga muammo yozgan [1].

Ikkinchi guruhga alif harfidan to yo harfigacha turli ismlarga yozilgan muammolar kiradi. Bunday muammo she'rlar an'anaviy devon tartib berish qonuniyatlaridagiga o'xshash tarzda avval hamd (Alloh nomlariga), keyin na't (Muhammad payg'ambar ismlariga), ulardan keyin esa manqabat (chahoryor ismlariga) va muslibat (sahobalar va avliyolarga yozilgan), so'ngra boshqa nomlarga aytilgan muammolar ketma-ket tarzda o'rin olgan.

Abdurahmon Jomiy devonida turli nomlarga yozilgan muammo she'rlar aralash holda keladi [8: 451-459]. Ushbu o'rinda muammo she'rlarining joylashishi g'azallar singari radifga ko'ra emas, balki yashirilgan ismning birinchi harfiga qarab tartib berilganligini ham aytib o'tish o'rinli.

Ma'lumki, har bir poetik janr davr o'tishi bilan rivojlanadi, taraqqiy etadi, sayqallana boradi, shakl va mazmun jihatdan o'zgarishlarga uchraydi. Muammo janri ham bunday o'zgarishlardan mustasno emas. Muammo she'rlarning aksari masnaviy, fard, tuyuq, qita va ruboiy shakllarida bo'lishi yaxshi ma'lum.

Muammo janrida yozilgan she'rlarning ruboiy shakli manbalarda ko'p uchraydi. Lekin muammoning ruboiy mustazod shaklida yozilgan namunasi ommalashmagan. Mazkur shakldagi muammoni Abdurahmon Jomiy ijodida "Xoja Kalon" va "Sulton Husayn" nomlariga yozilgan ikkitasini uchratdik. "Xoja Kalon" nomiga yozilgan muammo:

سروی که ز سنبل خطش ریحان شد صد بار خجل
دردا که ز عاشقان بی سامان شد پیوند گل
دل خواست بجهد آرد اورا بکنار چون دست نیافت
افتاد ز پای آخر و نالان شد این مسکین دل

Mazmuni:

Rayhonning sunbal sochidan yuz marta xijil bo'lgan sarv,
Ey dardki, cheti yo'q oshiqlardan ajralib gulga bog'landi.
Dil harakat qilib uni o'rtaga olmoqchi bo'lganida,
qo'lini topomasdan

Oqibat yiqilib tushdi va bu miskin dil nolon bo'ldi [8: 458].

Ismning chiqarilishi: Ikkinchi misradagi ishoraga binoan "عاشقان" so'zi somonsiz, ya'ni chetidagi ko'pliqlik qo'shimchasini bildiruvchi "ان" olinadi. Yana shu misrada shu bo'lak "گل" so'ziga bog'lanishi kerakligi aytilgan. Oldin "گل" so'zini muammoning ta'rib va ta'jim qoidasiga ko'ra "کل" shakliga keltiramiz. Shundan so'ng hosil qilingan harfiy birikmani oldin olingan "ان"ga qo'shamiz. Undan "کلان" so'zi chiqadi. Ismning qolgan qismi to'rtinchi misradagi ishoralar yordami bilan topiladi. Unda ishoraga binoan oldin "خواست" so'zini o'rtasidan bo'lsak, "خوا" qismi qoladi. Navbatdagi ishoraga ko'ra, "جهد" so'zining "qo'l'i", ya'ni ismni chiqarishga xalal berayotgan "dol" harfini turshirish orqali "جه" olinadi. Olingan bo'lakni "خوا"ga ulasak, "خواجه" hosil bo'ladi.

Muammo she'rlar dastlab arab tilida bo'lgan. Muammoning bu tilidagi namunalari Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq as-sehr fi daqoyiq ash-she'r" [21: 303-305] va Ali Fuat Bilkanning "Türk Edabiyatında mu'ammâ" [10: 10-11] kitobida ko'rsatilgan. Ular, asosan, XIV asrgacha bo'lgan she'riyat vakillari ijodida uchraydi. Keyingi davr she'riyatida arab tilida yozilgan muammo she'ri u qadar ko'p bo'lmasa ham uchratish mumkin. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning Alisher Navoiyga bag'ishlangan "Alisher" nomi chiqadigan arab tilidagi muammo she'ri "Bahoriston" asariga kirgan:

علی سیر الافضل سرت دهر ا
و احرزت الفضائل بالفواضل
و باسمک فقت اهل الفضل طرا
لذا صورته فوق الافاضل

Mazmuni:

Dunyo quvonchini buyuklarning chehrasida ko'rdim

va ne'matlar ko'pligidan musharraf bo'ldim.

Syening noming bilan ahli lutfdan ko'p ustun bo'ldim,

shuning uchun uning surati ulug'lar ustida bo'lsin [9: 107; 20: 152; 2: 139].

Muammolarning aksarida ishq-muhabbat motivlari yetakchilik qiladi. Bu janridagi she'rlarda shuningdek, axloqiy-ta'limiy, ma'rifiy xarakterdagi, shu bilan birga real voqeliklarga asoslangan lavhalarni ham ko'rishimiz mumkin. Abdurahmon Jomiyning "Ulug'bek" nomiga yozilgan muammosida lirik qahramonning o'z sevgilisini ko'rish istagida bog' sayriga kirishi bilan bog'lik kechinmalar aks etgani sababli ishq-muhabbat mavzuidagi she'rlar sirasiga kiritish mumkin:

ز گل دامن کشم در باغ بی دوست
که بی برگگی دل از دوری اوست

Mazmuni:

Bog'da do'stsiz guldin etak tortaman,

Zero, dilning bargsizligi uning uzoqdaligidandir [8: 450].

Xulosa. Muammoning yechimi: Oldin ishoralarga ko'ra, "گل" so'zining "etagi" bo'lgan "lom" harfi olinadi va "باغ" so'zidagi "alif" harfidan keyin joylashtiriladi. Shunda "بالغ" so'zi hosil bo'ladi. "در باغ بی دوست" ishorasi "باغ" so'zida "be" harfining isqot qilinishiga ishoradir. "Be" harfi isqot qilinganda, "بالغ" so'zidan "الغ" chiqadi. Ismning qolgan harflari ikkinchi misradagi "که بی" harfiy birikmalari yordamida chiqariladi. Oldin "که" bog'lovchisidagi "ه" harfi tushirilib, qolgan harflar qalb qoidasi asosida kerakli o'rinlarga qo'yilsa, "بیگ" hosil bo'ladi. Uni birinchi bo'lak bilan qo'shilsa "الغ بیگ" ("Ulug'bek") ismi chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiy Sharq xalqlari adabiyotida muhim o'rin tutuvchi muammo janrining nazariy jihatlariga bag'ishlangan risolalar bitish barobartida, o'zi ham ushbu janrda betakror asarlar yarata olgan. Allomaning risolalari muammoning nazariy jihatlarini qiyosiy o'rgani, taraqqiyot bosqichlarini belgilashda ahamiyatli. Muammo she'rlari ijodkor badiiy mahorati bilan bir qatorda, ushbu janrning adabiy jarayondagi o'rni, Jomiy singari yetuk ijodkorlarning unga munosabati masalasiga oid tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abbasqulixon Shomlu. Allohning ismlariga bag'ishlab yozilgan muammolar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 10089/IX raqamli qo'lyozma.
2. Abdurahmoni Чомӣ. Bahoriston. – Dushanbe: Maorif va farhang, 2008. –139 s.
3. Abdurahmon Jomiy. Risolai muammoi kabir. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi. 808/I raqamli qo'lyozma.
4. Abdurahmon Jomiy. Risolai muammoi mutavassit. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi. 120/IV raqamli qo'lyozma.
5. Abdurahmon Jomiy. Risolai muammoi sag'ir. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi. 38/III raqamli qo'lyozma.
6. Abdurahmon Jomiy. Risolai muammoi mutavasit. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi. 112 raqamli qo'lyozma.

7. Abdurahmon Jomiy. Risolai muammoi manzum. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 209/IV raqamli qo'lyozma.
8. Abdurahmon Jomiy. Kulliyot. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 323 raqamli qo'lyozma.
9. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi. 911 raqamli bosma kitob.
10. Ali Fuat Bilkan. Türk Edabiyatında mu'ammâ. –Ankara: Akcag, 2000. –181 s.
11. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1989. – 589 b.
12. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. –Toshkent, 2015. –85 b.
13. Bertels Ye.E. Izbrannyye trudy. –M.: Nauka, 1965. –498 s.
14. Djami. Izbrannyye proizvedeniya / A. Afsaxzod. Abdurraxman Djami, yego vremya i tvorchestvo. <https://wysotsky.com/0009/109.htm>
15. Mavlonov Vohididdin Aziziy. Qavoidi Mashriqiy. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 2893/V raqamli qo'lyozma.
16. Muallifi noma'lum. Muammo risolasi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 3867/V raqamli qo'lyozma.
17. Muallifi noma'lum. Allohning 99 ismiga yozilgan muammolar to'plami. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 323 raqamli qo'lyozma.
18. Muallifi noma'lum. Allohning 99 ismiga yozilgan muammolar to'plami. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 3867/II. raqamli qo'lyozma.
19. Muallifi noma'lum. Muammo risolasi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 782/II raqamli qo'lyozma.
20. نورالدين عبدالرحمن بن احمد جامى. بهارتان و رسائل جامى. –تهارن: ميراث مکتوب 2000. –ص 510.
21. Rashid ad-din Vatvat. Sadı volshebstva v tonkostyax poezii. –Moskva: Nauka, 1985.–324 s.
22. Sharafiddin Ali Yazdiy. Muntaxabi hulal. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi Ayo Sofiya fondi. 3846 raqamli qo'lyozma.
23. Sharafiddin Ali Yazdiy. Manozir. Turkiya. Sulaymoniya kutubxonasi Ayo Sofiya fondi. 3846 raqamli qo'lyozma. Hoshiya.
24. Sharafiddin Ali Yazdiy. Hulali mutarraz dar fanni muammo va lug'az. Istunbul. Sulaymoniya kutubxonasi Ayo Sofiya fondi. 3846 raqamli qo'lyozma.
25. Sharafiddin Munajjim Muammoiy. Qavoidi muammo. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondi. 6009/IV raqamli qo'lyozma.